



SAID AHMADNING “QORAKO’Z MAJNUN” HIKOYASIDA MILLIY FOJIA MASALASI

¹Yerjanova Saule Baymurzayevna

Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

²To’ychiyeva Zuleyxa Hamroq’lovna

Guliston davlat universiteti o’qituvchisi

zulayxot775@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 04th June 2023

Accepted: 12th June 2023

Online: 13th June 2023

KEY WORDS

*Qorako’z, mustaqillik, erk,
kechinma, yolg’izlik, avlodlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Said Ahmadning “qorako’z majnun” hikoyasida milliy fojia masalasi tadqiq qilingan. Asarning asosiy g’osasi va mazmunan qarashlar o’rganilgan. Adibning asosiy kechinmalari va qahramonlar taqdiri tahlil qilingan.

Mamlakatimiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan keyin milliy qadriyatlarimizni, jumladan, uning eng muhim tarkibiy qismi bo’lgan milliy adabiyotimizni o’rganish va badiiyatini kashf etish har birimizning, xususan, filologiya sohasida ish olib boruvchi mutaxassislarning oldida turgan birlamchi vazifa bo’lib qoldi. Chunki milliy ruhni bizga beruvchi bu adabiyot globallashuv asrida taraqqiyotimizga xavf solib turuvchi ko’plab yot g’oya va mafkuralardan himoya qiladi. Negaki, Said Ahmad ijodi insonga o’zlikni eslatib turuvchi nazm durlaridir. Qolaversa, har bir fan sohasida bo’lgani kabi adabiyot sohasida dam istiqlool davriga xos adabiy-badiiy muhitni, tadqiqot usullarini yaratmoq lozim. Said Ahmad singari ijodi mumtoz Sharq va jahon adabiyoti namunalaridan ozuqalangan asarlar buni taqozo qiladi.

Hayotiy ko’lamning kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar voqealar asnosida idrok etilishi lozim bo’lgan epik asarlarda tahlil ham o’ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Epik asarlarda kechinmalarning o’zini, kayfiyatlarning ifodasini berishdan ko’ra, tuyg’ularning paydo bo’lish jarayoni, ularning ildizlari ko’rsatilishiga e’tibor qaratiladi. Epik asarlarda badiiy tahlil ham ko’lamdor, ko’p bosqichli bo’ladi. Epiklikning eng asosiy belgisi: voqeabandlik va tasvirda tafsilot mavjudligidir. Qaysi janrda bo’lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda personajlar ozdir-ko’pdir voqealar qo’ynida tasvirlanadi va ularning tabiatlari hodisalar tasviri asnosida namoyon bo’la boradi.

Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammosi – avlodlar silsilasi, otalar va bolalar munosabati alohida o’rin tutadi. Adibning mustaqillik yillarida yozilgan hikoyalarida ijtimoiy ruh yanada keskin va yorqin bir tarzda namoyon bo’lgan. Xususan, bunday holat “Qorako’z majnun” hikoyasidagi voqealar tasvirida ona va farzand, ular o’rtasidagi keskin munosabatlar ildizi asr fojiasi, mustabid tuzum siyosati, mafkurasi, axloqiy aqidalariga borib tutashadi: jamiki ko’rguliklar, fojialar mash’um siyosatning oqibati tarzida ko’rsatiladi.



“Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘sharning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar”.

(Baqara surasi, 217-oyat.)

“Qorako‘z majnun” mustaqillik yillarida yozilgan eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradi. Hikoya voqeasi juda murakkab emas. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o‘n yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonalarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni kutadi. Xudoning bergan kuni sahar namozida uni eslaydi. Saodat aya tabiatida o‘zbekning chin muslima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o‘ylashdek mulohazakorlik mujassam. O‘g‘lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo‘ladi. Adib kampiridagi bu o‘zgarishni: “Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi”, - degan tarzda bayon qiladi. Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako‘z bilan qizining uyiga qarab yo‘lga chiqadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating. Yo‘l bo‘yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagarchiligi, deyluk, “bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik” qilishlarini, yo‘lda uchragan mushuklarni “tiraqaylatib quvishi”, “daraxtlardagi musichalarga irg‘ishlab” akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi. Kampir itini o‘z uyinin bir a‘zosidek e‘zozlaydi. Shuning uchun ham u itiga qarab: “Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz.

“Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o‘ynab turasan”, - deb bemalol gapiradi. Yo‘l bo‘yi Saodat kampir iti bilan shu zaylda suhbatlashib boradi va suhbatlashib iziga qaytadi. Qaytsa, uyida uni g‘aroyib bir yangilik kutib turadi. Bo‘rixon kelibdi, ya‘ni kampirning “g‘oyiblari hozir” bo‘libdi. Bu yangilik “Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini” tarqatishi, “ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni” ushatishi lozim edi. Biroq voqelik o‘zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi... Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois “notanish odamga g‘ashlik qilib tinmay irillaydi”. Ona bag‘rida Bo‘rixon begonaga o‘xshaydi. Chunki “undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi”. Xursandchilikdagi ona avval bunga e‘tibor bermaydi. Sekin-asta o‘g‘li Bo‘rixonning otabobolari e‘tiqod qilgan islom dinidan qaytib boshqa dinni qabul qilgani ma‘lum bo‘ladi. Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo‘rixonda ko‘ngli soviydi, uni yo‘qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o‘giradi. Endi ona sahar namozida o‘g‘lini eslamay qo‘yadi. Hikoyada Saodat ayaning go‘zal yoshlik pallalari, Bo‘rixonning tug‘ilishi va uning boshqa yurtlarda yurib onasi ko‘nglini o‘ksitgan noxush qilmishlarining mo‘jaz tarixi bayon qilinadi. Vafot etar mahalida ham Saodat ayaning hayot mazmunini, bu dunyoga kelish va ketish hodisasini juda tabiiy – muslimona anglagani farzandlari hamda nevaralarini chaqirib, ularga qilgan vasiyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Albatta, hikoyani o‘qish mobaynida sarlavhadagi Qorako‘z majnun nima ekanini bilib olamiz. Ha, bu o‘sha, yozuvchi mehr bilan ta‘riflagan - kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor, – tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora, bir ko‘zining tepasida to‘mtoq oshi bor it. Agar e‘tibor bergan bo‘lsangiz, hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako‘zni Saodat kampirga doimiy hamrohlikda tasvirlaydi. Vafodor



it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo'lsa xafa, xursand bo'lsa xursand, kampir o'ygacha cho'msa, u ham o'y surgandek bir nafas tinchiydi. Garchand kampirni sog'intirgan bo'lsa ham, Bo'rixon itdan ko'ra Saodat ayaga begonaroqdir. Hikoyada Saodat kampir vafotidan so'ng yozuvchi ham Qorako'zning ruhiyatini siz o'quvchilarga anglatish maqsadida o'tkir qalami bilan uning qora ko'zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo'yadi. Hikoya oxiridagi Qorako'z majnunlik o'limi o'quvchini mahzun qiladi. Hikoya boshida Qur'oni Karimning "Baqara" surasidan oyat epigraf sifatida keltiriladi. Bu ko'chirmalar aynan hikoyadagi Bo'rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg'ab olish mumkin. As'hobi kahf to'g'risidagi hadisi sharif esa hikoyada xuddi ongli va oqil insondek tasvirlangan Qorako'z majnunga taalluqli, albatta. Hikoyada juda katta ma'no-mazmun jamlangan. O'zbekona urf-odatlar qadri noliyiq bir farzandning qilmishlarini ko'rsatish orqali ta'kidlanadi. To'g'risi, itning vafosi bir o'g'ilning ona ko'nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma'naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug'vorlik kasb etadi.

Naql qilinishicha, mashhur shayx Abu Bakr Shibliy (vafoti 946)dan "Tariqatdagi ilk yo'l boshchingiz kim?" - deb so'ralganda, u — Bir itdir" deb so'zini shunday davom ettirgan ekan: — Bu it suvsizlikdan o'lim yoqasida tik turardi. U suv ichish uchun ne zamon ariqqa yaqinlashsa, suvda o'z aksini ko'rar va undan qo'rqardi. Chunki o'zining suratini u boshqa bir itniki deb o'ylardi. Ammo tashnalik oxiri zo'r kelib, it o'zini suvning ichiga otdi... Ana shundan so'ng — boshqa kuchuk yo'qligiga inondi. It bilan o'rtadagi borliq orasiga kirgan itning — o'zga manligi uning yo'liga to'siq paydo etgan edi. Men ahvolimning aynan shu itga o'xshashini, ya'ni yo'limdagi eng katta to'siq nafs ekanini angladim... Xullas, mening birinchi yo'l boshchim shu it bo'ldi. Asosiy yo'lga qanday qadam tashlash lozimligini menga bir kuchuk ko'rsatdi.

Nafsi tasavvuf adabiyotida it qiyofasida tasavvur qilinishida shu singari fikr va e'tiroflar ta'sir o'tkazganligi ehtimoldan yiroqmas. Biroq asosiysi it ham, tulki yo sheri darron ham emas, baribir nafsdir. Ko'zga ko'rinmay dunyoni tub-tubidan g'orat qiladigan mavjudlik, bu -nafs. U qancha ko'p hukmronlikka erishsa, dunyoning axloqiy-ma'naviy holati o'shancha buziladi; haqiqat va vijdon, diyonat va rostlik boshidagi qaro bulutlar shu qadar quyuqlashadi. Shuningdek, zohiriy chora-tadbirlar, bahsu munozaralar nafsdan tug'ilajak kulfat, musibat va halokatlarning yo'liga to'siq qo'yolmaydi. Nafs erkin va erkli ekan, yolg'on, riyo, zulm, zo'ravonlik, munofiqlik, xullas, hamma yomon va tuban sifatlar gullab yashnayveradi. Bular esa inson botinidagi "it" - nafsning o'yinlari. Xohlasa, odamni u parchalab, sohib yuboradi, istasa, o'zni yig'ishtirib olishga imkon beradi. Lekin har qancha urinib-surinmang, undan ajralolmaysiz. Siz - unda, u - sizda yashaydi. U - sizga, siz - unga bog'liqsiz. Kimki uni qancha xoru zalil eta olsa, o'zini ham, o'zgalarni ham o'shancha yaxshi anglashi muqarrardir.

Badiiy adabiyotda hayvonlar obrazi keng miqyosda uchrashi hech birimizga sir emas. Hayvonot dunyosi ba'zan odamlarga do'st qilib tasvirlansa, ba'zida aksi. Yuqorida berilgan hikoyada ham inson va hayvon o'rtasidagi do'stlik aks etgan. Shu bilan bir qatorda odamlarning o'sha birgina hayvonchalik bir-biriga mehr ko'rsatmasligi yozuvchi tomonidan tasvirlangan. Hikoyada hayvonlar qatnashadi va ularning qiyofasi orqali insonlarga xos xususiyatlar beriladi. Yozuvchi el orasidan ko'tarilib borayotgan odamiylikning asl egalari hatto hayvoncha oqibat qila olmay qolayotganini asarda chuqur mulohazakorlik va



achinish bilan ta'kidlaydi. Hikoyada ayrim kimsalarning qalb illati va hayvonlarning insoniy tuyg'ulari to'g'risida fikr yuritiladi.

References:

1. Khamrokulovna, T. Z. (2021, August). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 1, pp. 48-50).
2. Khamrokulovna, T. Z. (2022). Literature is a source that reveals the truth of life. World Bulletin of Social Sciences, 10, 86-87.
3. Khamrokulovna, T. Z. (2022). On the morphological structure of the word in the uzbek language.
4. Тўйчиева, З. (2023). АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ “САРОБ” РОМАНИДА ИБОРАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. Journal of Universal Science Research, 1(4), 304-307.
5. Kholbekova, M., & Tuychiyeva, Z. Articles and expressions in Hamid Olimjon's works. In Current issues of Uzbek linguistics. Republican scientific-theoretical conference materials (Vol. 3).
6. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. Проблемы педагогики, (7), 77-78.
7. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. MUNDARIJA/TABLE OF CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ, 244.
8. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 75-82.
9. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. Проблемы педагогики, (7 (39)), 77-78.
10. Туйчиева, З. Х. (2015). Проявление научно-исследовательских мотивов студентов в процессе обучения психолого-педагогических наук. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 1(3-4), 89-91.
11. То'uchiyeva, Z. (2023). ZULFIYA SHE'RIYATIDA FRAZEMALARNING O'RNI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 234-237.
12. Eshbayevich, T. D. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 554-560.
13. Toshtemirov, D. E. (2019). USING CLOUD TECHNOLOGY TO PROVIDE INFORMATION RESOURCES IN THE PROCESS OF DISTANCE LEARNING. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 21-26.
14. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S. X. I. M. L., & BAHOLASH, Y. B. Y. K. K. MEZONLARI//Scientific progress. 2021. № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yaratish-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06. 2022).